



**BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARI IJTIMOYIY-KASBIY
RIVOJLANISHINING NAZARIY-AMALIY TAHLILI**

Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna
“University of economics and pedagogy” NOTM
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi
abduraxmonovasayyora85@gmail.com
+998914999109

*Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g'oya, eng muhimi, islohotlarni
amalga oshirishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlari kerak.*
Sh.M.Mirziyoyev

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226695>

Annotatsiya. Mazkur maqolada, maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ijtimoiy va kasbiy rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari o'rganilgan. Tadqiqotda, innovatsion ta'lim texnologiyalarining pedagogik jarayondagi roli, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda metodik yondashuvlarning ahamiyati, shuningdek, bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, vaqtni boshqarish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Ushbu ish, pedagogik amaliyotda ilgari surilgan metodlarni innovatsion texnologiyalar bilan boyitishga bo'lgan zaruratni va tarbiyachilarning malakasini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, ijtimoiy rivojlanish, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, pedagogik metodlar, psixologik yondashuv, ta'lim jarayoni, pedagogik tayyorgarlik, metodik yondashuv.

Kirish

Bugungi kunda, mamlakatimizning ta'lim sohasida olib borilayotgan izchil va tizimli islohatlar bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ijtimoiy-kasbiy rivojlanish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, shu jumladan, multimediya texnologiyalari, o'yinli va interaktiv o'qitish metodlarini qo'llashni o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ijtimoiy-kasbiy rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari nafaqat ta'lim tizimining sifatini oshirish, balki tarbiyachilarni yuqori malakali va kompetent pedagoglar sifatida tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgaruvchan jamiyat talablari, texnologik rivojlanish va global ta'lim uslublari bilan uyg'un bo'lishi lozim[1]. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida o'quv dasturlari, metodikalar va pedagogik texnologiyalarni yangilash ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan asosiy yo'nalishlardan biridir. Shu sababli, bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ijtimoiy-kasbiy rivojlanishini ta'minlash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqot usullari va materiallari

Ushbu tadqiqotda zamonaviy pedagogik metodlarni o'rganish, ta'lim texnologiyalarining roli, shuningdek, bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning pedagogik amaliyotga oid fikrlarini o'rganish uchun anketalar, suhbatlar va eksperimentlar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotda shuningdek, amaliyot natijalari, bo'lg'usi pedagoglarning ishtirok etgan seminarlari va metodik mashg'ulotlar hamda ta'lim muassasalaridagi yangiliklar tahlil qilindi[2]. Tadqiqot materiallari, xususan, pedagogik amaliyot, ta'lim metodikalarini o'rganish va innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan mashg'ulotlar hamda talabalarning tajribasi orqali olingan natijalarga tayangan holda ishlab chiqildi.



Men shaxsiy tajribamda, yangi texnologiyalarni qo'llashda ba'zi talabalarning texnik jihatdan qiyinchiliklarga duch kelganini ko'rdim. Masalan, interaktiv ta'limda mobil qurilmalardan foydalanish ko'p hollarda talabalar uchun qiyin bo'lgan. Ular dastur va platformalar bilan ishlashda ba'zi muammolarga duch kelishdi. Bu, ayniqsa, internetga ulanishdagi cheklolvar yoki texnik nosozliklar tufayli dars jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Shuning uchun, innovatsion texnologiyalarni samarali ishlatish uchun ilgari surilgan metodlarni moslashtirish va har bir talabaga individual yordam ko'rsatish zarur deb o'ylayman.

Natijalar va muhokamalar

Pedagogik amaliyot talabalarga o'z kasbiy ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining ijtimoiy-kasbiy rivojlanishida zamonaviy ta'lim texnologiyalarining muhim rol o'ynashi isbotlandi. Innovatsion metodikalar, masalan, interaktiv darslar, loyiha asosidagi ta'lim, ko'p bosqichli baholash tizimlari va boshqa pedagogik yondoshuvlar o'quvchilarning jamiyat bilan integratsiyasi, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'ldi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonni tahlil qilish, o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetentliklarini oshirishda yangi metodikalarni sinovdan o'tkazish talab etiladi.

Bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy rivojlanish jarayonida ularga yuksak ijtimoiy va psixologik kompetentlikni taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning innovatsion metodikalarni qo'llash, yangi pedagogik g'oyalar va texnologiyalarni amalga oshirishlari talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilgan amaliyotlar ko'rsatadiki, bu jarayon talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorlanishida sezilarli ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilari o'zlarining shaxsiy va kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishda pedagogik metodlarni mukammal bilishlari, bolalar bilan samarali muloqot qilishlari, psixologik yordam va pedagogik maslahatlarni samarali taqdim etishlari kerak[3]. Talabalarga o'z kasbiy faoliyatlarida o'zgaruvchan pedagogik vaziyatlarga moslashish imkoniyatlari yaratish, innovatsion g'oyalar va metodlarni ishlab chiqishga imkon berish, ta'lim jarayonida ijodiy va o'ylashga asoslangan yondoshuvlarni rivojlantirish talab etiladi.

Bundan tashqari, pedagogik amaliyotlar jarayonida o'quvchilarning jamiyatdagi ijtimoiy roli, ularning jismoniy va ma'naviy rivojlanishlari, shuningdek, turli kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratish zarur. Bu, o'z navbatida, talabalarning jamiyatga moslashishi va kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi[4]. Bunda, ta'lim jarayonida pedagoglarning o'z kasbiy malakalarini va metodologiyalarini doimiy ravishda yangilab borishlari hamda talabalarga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha yordam berishlari kerak.

Mening tajribamda, bu ko'nikmalarni o'rgatishda ba'zan qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Misol uchun, vaqtni boshqarish masalasida ba'zi talabalarning o'z vaqtini to'g'ri rejalashtira olmasliklari, o'qish va shaxsiy faoliyatlarini muvofiqlashtira olishmasligi kuzatilgan. Shuning uchun, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish uchun, vaqtni boshqarish va rejalashtirish ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy va shaxsiy kompetentliklarini rivojlantirishda pedagogik amaliyot va innovatsion ta'lim texnologiyalarining muhim roli isbotlandi. Maktabgacha ta'lim tizimi bo'lg'usi pedagoglar uchun kasbiy tayyorgarlikning zamonaviy metodlarini taqdim etish, ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam berish va jamiyat bilan integratsiyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishda davom etishi zarur. Pedagogik metodlarning yangilanishi, ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi va pedagoglarning o'z malakalarini doimiy ravishda oshirish talab etiladi. Shunday qilib, bo'lg'usi maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarlik darajasi nafaqat ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatiga, balki jamiyatda ta'lim tizimining yanada rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, har bir pedagog va tarbiyachiga o'z faoliyatini muntazam



ravishda yangilab borish, yangi metodlarni o'rganish va bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkinov, B. A. (2017). Pedagogik amaliyot va uning ta'lim jarayonidagi o'rni. O'zbekiston ta'lim ilm-fani.
2. Azizov, Sh. T. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalari: pedagogik yondoshuvlar va amaliyot. Ta'limdagi yangiliklar.
3. Xo'jaev, Z. O. (2020). Maktabgacha ta'limda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari. Pedagogika va jamiyat.
4. Mirkhmedov, M. J. (2021). Pedagogik metodlar va talaba kasbiy rivojlanishi. Yosh pedagoglar jurnali.
5. Abduraxmonova S. Sh. (2024). Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni otanalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning tamoyillari. Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences.